

PRESS-RELIZ 26.03.2026-yil

Samarqand viloyatida maktabgacha va maktab ta'limi tizimidagi islohotlar va amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida

Bugungi kunda Samarqand viloyatida maktabgacha va maktab ta'limi tizimini rivojlantirish, bolalarni sifatli ta'lim bilan qamrab olish hamda ta'lim muassasalarining shakli va mazmuniga alohida e'tibor qaratilib, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Viloyatda hozirgi kunda **782 ta** davlat hamda **3661 ta** xususiy va davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritib, ularda jami 288 947 nafar, ya'ni maktabgacha yoshdagi bolalarning **73,6 foizi** qamrab olingan.

Shuningdek, **1 275 ta** davlat va **55 ta** nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktablari, 19 da 789 231 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. Ularning ta'lim-tarbiyasi bilan **62 556 nafar** pedagog xodimlar samarali mehnat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrda "2026–2028- yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-393-sonli qarori ijrosi doirasida Samarqand viloyatida yirik qurilish va ta'mirlash ishlari rejalashtirilgan.

viloyatda jami **83 ta** umumta'lim maktablarida (shundan 3 ta yangi qurilish, 70 ta rekonstruksiya va 10 ta mukammal ta'mirlash) hamda 26 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida (10 ta yangi qurilish, 13 ta rekonstruksiya va 3 ta mukammal ta'mirlash) ishlar amalga oshirilishi belgilangan.

Hozirgi kunda viloyat hokimligi huzuridagi "Yagona buyurtmachi xizmati" davlat unitar korxonasi tomonidan jami 108 ta ta'lim muassasasidan 104 tasi bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan va kompleks ekspertiza xulosasi olish uchun taqdim etilgan. Shulardan 59 tasi bo'yicha ijobiy xulosa olingan bo'lib, ular pudratchi tashkilotlarni aniqlash maqsadida tender savdolariga chiqarilgan.

Ayni paytda 14 ta ta'lim muassasasida pudratchi tashkilotlar aniqlanib, qurilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, 2026-yil 1-mavsum "Tashabbusli budjet" dasturi doirasida jami 62 ta loyiha g'olib deb topildi. Ularning 50 tasi umumta'lim maktablarida, 12 tasi esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash ishlari hamda moddiy-texnik bazani yaxshilashga qaratilgan.

Mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun har bir loyihaga o'rtacha hisobda 1,6 milliard so'm mablag' aholi ovoz berish jarayoni orqali ajratilgan bo'lib, hozirda ular bo'yicha loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda.

Samarqand viloyatida ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan mazkur ishlar yosh avlodga yanada qulay, zamonaviy va sifatli ta'lim sharoitlarini yaratishga xizmat qiladi

Samarqand viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi axborot xizmati
979220840